

**ALISHER NAVOIYNING “BORMOG‘IN” VA “SARVI GULRUX  
SORIDIN” TUYUQLARIDA TAJNIS SAN‘ATINING AHAMIYATI**

**Normatova Lobar Dilshod qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Bormog‘in” va “Sarvi gulrux soridin” tuyuqlari misolida tajnis san‘atining badiiy va semantik ahamiyati tahlil qilinadi. Tuyuq janrining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, tajnisli qofiya, omonim so‘zlar orqali ma’no qatlamlarini boyitish jarayoni yoritiladi. Shoir tuyuqlarida qo‘llangan badiiy san‘atlar, istiora, metonimiya kabi tasviriy vositalarning she‘r mazmunini chuqurlashtirishdagi roli ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot jarayonida har ikki tuyuqning leksik-semantik va badiiy tahlili amalga oshirilib, tajnis san‘atining tuyuq janrida poetik ta’sir kuchini oshirishdagi o‘rni ochib beriladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется художественное и семантическое значение таджниса в туюках Алишера Навои «Bormog‘in» и «Sarvi gulrux soridin». Рассматриваются особенности жанра туюк, в частности использование таджнисной рифмы и омонимичных слов для создания многослойного смысла. Также исследуется роль художественных средств, таких как метафора и метонимия, в углублении содержания стихотворений. В ходе исследования проводится лексико-семантический и художественный анализ данных туюков, раскрывается значение таджниса в усилении поэтической выразительности жанра туюк.

**Annatation:** This article analyzes the artistic and semantic significance of the tajnis (paronomasia) device in Alisher Navoi’s tuyuks “Bormog‘in” and “Sarvi gulrux soridin”. The specific features of the tuyuk genre are examined, particularly the use of tajnis rhyme and homonymous words that enrich the semantic layers of the poem. The study also highlights the role of poetic devices such as metaphor and metonymy in deepening the meaning of the verses. Through lexical-semantic and stylistic analysis of these poems, the research reveals the importance of tajnis in enhancing the poetic expressiveness of the tuyuk genre.

**Kalit so‘z:** Alisher Navoiy, tuyuq janri, tajnis san‘ati, mumtoz adabiyot, omonim so‘zlar, badiiy san‘atlar, istiora, metonimiya, aruz vazni, poetik tahlil.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, жанр туюк, таджнис, классическая литература, омонимы, художественные средства, метафора, метонимия, аруз, поэтический анализ.

**Keywords:** Alisher Navoi, tuyuk genre, tajnis, classical literature, homonyms, poetic devices, metaphor, metonymy, aruz meter, poetic analysis.

Tuyuq — turkiy xalqlar mumtoz she'riyatidagi lirik janr sanaladi. Tuyuq 4 misrali she'r bo'lib, aruzning ramal bahrida yoziladi. Tuyuq a-a-b-a, ba'zan a-b-a-b tarzida va favqulodda hollarda — a-a-a-a o'lchovida qofiyalanadi. Tuyuq so'z o'yini asosida tajnis qofiyasida beriladi. Albatta, tuyuq janrining asosiy jihatlaridan biri bu so'zlarning omonimlik hosil qilish xususiyati hisoblanadi. So'zlarning omonimlik hosil qilishi mumtoz adabiyotda tajnis san'atini hosil qiladi. Tajnis san'ati deb esa baytda jinsdosh so'zlardan ikki yoki undan ortiqroq tushunchalarni keltirishga aytiladi. Jinsdosh so'zlar deb aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nolari har xil bo'lgan so'zlarga aytiladi. Ammo adabiyotda tajnissiz tuyuqlar ham bor. Tuyuqning dastlabki namunalari xalq og'zaki ijodida uchraydi. Bizgacha yetib kelgan dastlab yaratilgan tuyuqlardan Burhoniddin Sivosiy (14-asr) qalamiga mansub. "Qutadg'u bilig" da ham tajnisli to'rtliklar bor, biroq ular mutaqorib bahrida yozilgan. Mumtoz adabiyotimizda ushbu janriga Alisher Navoiy, Mavlona Lutfiy, Zahiriddin Muhammad Bobur sermahsul ijod qilgan. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida tuyuqni birinchi marta janr sifatida belgilab o'tgan va shakllantirgan. Alisher Navoiy tuyuq janrining rivojiga ulkan hissa qo'shgan bo'lib, "Badoye' ul-vasat" devonida 13 ta tuyuq janriga oid ijod namunalari yozib qoldirgan. Bunga misol tarzida "Bormog'in" va "Sarvi gulrux soridin" tuyuqlarini keltirishimiz mumkin. Ushbu tuyuqlarda badiiy san'atlardan ham unumli foydalanilgan.

"Bormog'in" tuyug'ining matni:

Necha dedim ul sanamg'a: "Bormog'in"

Qilmadi ul tark oxir bormog'in.

Munchakim xudroyliq ko'rguzdi ul,

Aql hayrat qildi, tishlab bormog'in.

Mazkur tuyuqda radif - ifodasi "Bormog'in" sanaladi. Radifning har bir musrada takrorlanishi nafaqat musiqiylikni ta'minlaydi, balki mazmunga kuchli ritmik va semantik urg'u beradi. Leksik-semantik tahlil jihatidan qarasak, ushbu tuyuqda keltirilgan: "sanam", "tark qilmoq", "xudroyliq", "bormog'in" kabi so'zlar bir-biri

bilan semantik aloqada bo'lib oshiqning ma'shuqa ishqida azob chekkanligi va ishqiy jarohat timsollarini ko'rishimiz mumkin. Tuyuqning baytlari tahliliga to'xtalsak, 1- misrasi oxiridagi "bormog'in" so'zi hozirgi tilimizdagi "bormagin" ma'nosida kelgan. 2 - misradagi "bormog'in" ni "bormog'ini" deb tushunishimiz kerak, satrdagi "oxir" so'zi esa "hech" ma'nosida ishlatilganiga guvoh bo'lamiz. 3- misrada sanamning qaysarligi ( "xudroyliq", ya'ni o'zboshimchalik qilgani) aytiladi. 4 - misradagi "bormog'in" so'zi "bormog'ini" degan ma'noda qo'llangan.

Necha bora u sanamga: "Bormagin", - dedim. ( 1- misra)

U bormog'ini hech tark etmadi. ( 2- misra)

U shunchalik qaysarlik qildiki... ( 3- misra)

Aql bundan hayratlanib, barmog'ini tishladi. ( 4- misra)

"Sarvi gulrux soridin" tuyug'ining matni:

O'tkali ul sarvi gulrux soridin,

Yo'q xabar ul sarvi gul ruxsoridin.

Hajridin bog' ichra berur yodima

Somatidin sarvu, gul - ruxsoridin.

Mazkur tuyuqda radif –"Sarvi gulrux soridin" so'zlari orqali ifodalangan. Tuyuqda oshiqning yoriga muhabbati go'zal ifodalar bilan tasvirlangan. 1-misrada «sarvi gulrux» so'zi istiora bo'lib, tik qomatli va gul yuzli yorni anglatib kelgan. Natijada satrdan: «Gul yuzli yor (yonidan) o'tgani, degan ma'no uqamiz.

2-misrada buning iloji yo'qligi mantiqan asoslanadi: «U sarvdek tik qomatli gulning yuzidan xabar yo'q. Bu yerda endi gul istiora sifatida to'g'ridan to'g'ri yorni anglatib kelyapti "Ruxsor" so'zi esa o'z ma'nosida yuzni bildirib turibdi. Lekin bunda ham so'z ko'chimi metonimiyaning «sinekdoxa» degan turi bor uzv, ya'ni butunning bir bo'lagi («yuz») tilga olinib, amalda butun (ya'ni yor)ning o'zi ko'zda tutilgan. 3-misrada: Yorning hajridan bog' ichra yodimga soladi.... degan fikr foydalanilgan. 4-misrada shoir endi «sarv» va «gul» so'zlarini o'z ma'nosida ishlatadi: «(Bog'dagi) sarv-yorning qomatini, gul esa uning yuzi (ruxsori)ni (yodga soladi)».

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida tuyuq janri o'zining badiiy mukammalligi va mazmuniy teranligi bilan ajralib turadi. Shoir tuyuqlarida so'z o'yini, ayniqsa tajnis san'ati orqali she'riy fikrni chuqur va ta'sirchan ifodalashga erishadi. "Bormog'in" va "Sarvi gulrux soridin" tuyuqlari misolida ko'rish mumkinki, bir xil

shakldagi, ammo turli ma'noni anglatuvchi so'zlar yordamida she'r mazmuni boyitilib, poetik ifoda kuchaytiriladi. "Bormog'in" tuyug'ida tajnis orqali so'zning turli ma'nolari qo'llanib, oshiqning ruhiy holati, ma'shuqaning qaysarligi va ishq iztirobi badiiy tarzda ochib berilgan. "Sarvi gulrux soridin" tuyug'ida esa istiora, metonimiya kabi tasviriy vositalar bilan bir qatorda tajnis unsurlari ham she'rning mazmuniy qatlamini kengaytiradi. Bu esa tuyuq janrida so'zning ma'no imkoniyatlari naqadar keng qo'llanilganini ko'rsatadi. Demak, Alisher Navoiy tuyuqlarida tajnis san'ati nafaqat qofiyaviy bezak vazifasini bajaradi, balki she'rning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtiruvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan shoirning tuyuqlari turkiy mumtoz she'riyatda mazkur janrning rivojlanishi va takomillashishida muhim o'rin egallaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. – Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Mavlona Lutfiy. Devon. – Toshkent: Mumtoz so'z nashriyoti.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
5. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Fan nashriyoti.